GEOGRAFIK NOMLARNING EKOLOGIK FUNKSIYASIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Madraximov Ablazbek Erkinjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Qulmatova Marjona Voxidjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, geografiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografik nomlarning ekologik funksiyalari va ulardan foydalanishni asosiy yo‘nalishlari, geografik nomlarni tasniflashga oid yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, geografik nomlarni tasniflashning ma’lum bo‘lgan yo‘nalishlariga qo‘shimcha ravishda ekologik funksiya bajaruvchi geografik nomlarni tasniflashga innovatsion yondashuv sifatida toponim, geografik nom, geokonsept tushunchalari taxlil etilgan va geokonsept g‘oyasiga asosan geografik-ekologik nuqtai-nazardan yondashish natijasida nomlar guruhlarga bo‘lingan.

Kalit so‘zlar: geografik nomlarni ekologik funksiyalari, nomlarni tasniflash, ekologik toponimlar, topos, geografik nom, geokonsept, geografik-ekologik yondashuv

Kirish: Jahon miqyosida, bugungi globallashuv sharoitida geografik joy nomlarini o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Geografik joy nomlari, ularning tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jihatlariga qo‘shimcha ravishda jahon xalqlarining o‘z o‘lkalari o‘simlik va hayvonot olami, yer-suv resurslari hamda aholining milliy-etnik tarkibi, kasb-kori, ijtimoiy qatlamlari, ishlab chiqarishi haqida ma’lumot beruvchi geografik nomlar va terminlarning ekologik xususiyatlaridan amaliy maqsadlarda foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Geografik nomlar bo‘yicha ekspertlar guruhi (UNGEGN) geografik nomlarda ijtimoiy-madaniy va landshaft elementlari aks etishini inobatga olib, 2021-2029 yillarga mo‘ljallangan strategik rejasi hamda ish dasturini ishlab chiqqan. Unda “davlatlarning milliy geografik nomlarini standartlashtirish masalalari va ularning ustuvor harakatlarini aniqlash”[1] vazifalari belgilangan.

Asosiy qism: Geografik nomlar turli soha olimlarining e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Geografik nomlarga oid bo‘lgan masalalar geografiya, tarix, tilshunoslikka oid adabiyotlarda yoritilib kelinmoqda. Shu nuqati-nazarda bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi geografik nomlar bir-biridan kelib chiqish tarixi, shakllanishi, mazmun-mohiyati, geografik tarqalishi, yozilishi, ma’nosi, qaysi turga va tilga oid ekanligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Ma’lum hudud uchun xos bo‘lgan geografik nomlarni tadqiq etishda ularni tasniflash muxim ahamiyatga ega. Geografik joy nomlarini tasniflashga oid bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ular o‘z tasnifini taklif etganlar. Geografik nomlarni tasniflash ancha murakkab jarayon bo‘lganligi uchun olimlar tomonidan hanuz yagona tasnif turi taklif etilgani yo‘q. Geografik nomlarning hamma uchun tushunarli bo‘lgan tasnif turini mavjud emasligini, toponimikaning integral fan, lingvistika, tarix va geografiya fanlariga taalluqli ekanligi bilan ham izohlash mumkin. Tadqiqot maqsadi va yo‘nalishidan kelib chiqib xar bir fan nuqtai-nazaridan tasniflash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Geografik nomlarni tasniflash masalalari, H.Hasanov (1985), N.Oxunov (1989), S.Qorayev (2006), T.Enazarov (2013), P.G‘ulomov (2013), M.Mirakmalov (2020), V.Juchkevich (1968), E.Murzayev (1979), A.Superanskaya (1985) kabi olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan [1].

[1] UNGEGN- United Nations Group of Experts on Geographical Names
ttps://unstats.un.org/unsd/ungegn/documents/UNGEGN_Strategic_Plan_2021_V4.

H.Hasanov geografik nomlarni tasniflashga to‘xtalib, joy nomlarini 10 ta guruhga ajratadi [5]: 1)Joyning xolati, xosiyati, yer yuzasi va iqlimga bog‘liq nomlar; 2) Suvga bog‘liq nomlar, ya’ni gidronimlar; 3) O‘simlik va hayvonlarga bog‘liq nomlar; 4) Foydali qazilmalarga bog‘liq nomlar; 5) Xunar-kasbdan va ma’muriyatdan olingan nomlar; 6) Xalq, qabila va urug‘larga bog‘liq nomlar; 7) Shaxslarning ism-familyalariga qo‘yilgan nomlar; 8) Afsonaviy va diniy nomlar; 9) G‘aroyib nomlar; 10) Yangi zamon nomlari.

H.Hasanov toponimlarni turlarga ajratishda xar bir nomni birinchi navbatda til qoidalari nuqtai-nazaridan va shakllanish bosqichlariga ko‘ra taxlil qilish o‘rinli bo‘lishini aytib o‘tadi [5].

E.M.Murzayev toponimlarni semantik jihatdan 10 ta turga ajratadi. Bular quyidagilar [6]: Relyefning muayyan xususiyatlariga bog‘liq vujudga kelgan toponimlar; Suv obyektlariga, ularning belgilariga bog‘liq paydo bo‘lgan joy nomlari; O‘simlik turlariga bog‘liq joy nomlari-fitotoponimlar; Hayvonlar turlari bilan bog‘liq paydo bo‘lgan toponimlar – zootoponimlar; Insonlar ismi, familyasi, taxallusi bilan bog‘liq vujudga kelgan toponimlar – antroponimlar; Ishlab chiqarish bilan bog‘liq toponimlar. Bularga kasb-korlik, foydali qazilmalarni qazib olish, qazilma boyliklar konlari bilan bog‘liq holda vujdga kelgan joy nomlari kiritiladi; Savdo va transport bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan joy nomlari; Ijtimoiy nomlar. Aholining ijtimoiy qatlamlari bilan bog‘liq nomlar; Etnotoponimlar - xalq, urug‘, qabilalar nomlari bilan bog‘liq vujudga kelgan nomlar; Mafkura - siyosatga oid nomlar. Bunday nomlar hukmron sinflar dunyoqarashini aks ettiradi.

E.M.Murzayev (1963) toponimik tizim geografik nomlarning shakllanish jarayonida va ularning hozirgi zamon barqarorligida qonuniy ravishda takrorlanib turadigan o‘ziga xos xususiyatlar yoki belgilar yig‘indisidir, deb hisoblaydi [6].

Geografik obyektlarni tasniflashda amal qilinadigan, tadqiqotlar markaziga qo‘yiladigan yana bir muhim jihatlaridan bu – nomlarning o‘ziga xos funksiya bajarishligi hisoblanadi. Bu haqida V.D.Belenkaya quydagi fikrlarni aytib o‘tgan [2]:

1. Geografik nomlarda hudud uchun xos bo‘lgan ko‘rsatkichlar(ijtimoiy-tabiiy), adreslilik (manzil) funksiyasi; 2. Geografik nomlarda obyektning ko‘rsatkichlaridan tashqari nomning belgisini (oronim, gidronim, fitonim, zoonim) bildiruvchi funksiyasi; 3. Geografik nomlarning ko‘rsatkich+mafkuraviy g‘oya ya’ni, geografik obyektni o‘zini-o‘zi aniqlash, uning noyobligi, yagonaligini ko‘rsatuvchi funksiyasi; 4. Geografik nomlarning ko‘rsatkich+his-tuyg‘uni (emotsiya) ko‘rsatib beruvchi funksiyani ya’ni afsonaviy va g‘aroyib nomlar hisoblanadi.

Amerikalik tarixchi, toponimist George R. Stewart (1954) toponimlarning tasniflari to‘g‘risida o‘zining “A Classification of Place Names” maqolasida geografik nomlarni 9 ta guruhga ajratadi [5]: 1) Ta’riflovchi (tavsifiy) nomlar; 2) Egalik nomlar, ya’ni ayni bir shaxsga tegishli shuningdek xalq, urug‘, qabilaga talluqli bo‘lgan, egalik xissini shakllanturuvchi nomlar; 3) Biror-bir voqea-hodisa asnosida qo‘yilgan nomlar; 4) Esdalik ya’ni memorial nomlar; 5) Aytishga noqulay bo‘lgan nomlar; 6) Ishlab chiqarish bilan bog‘liq nomlar; 7) Ko‘chma, o‘zlashma nomlar; 8) Xalqona etimologik nomlar; 9) Xato nomlar. Shuningdek ushbu guruhlar yana kichik guruhlarga bo‘lingan.

Keyingi yillarda M.T.Mirakmalov (2020) geografik nomlarni tasniflash masalasiga to‘xtalar ekan, bu borada turlicha qarashlar mavjudligini aytib o‘tadi. Shuningdek, H.Hasanov tomonidan taklif etilgan geografik nomlarning tasnifi asosida toponimlarni quydagi

guruhlarga ajratadi [4]: joyning holati va o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq nomlar, joyning geografik o‘rniga bog‘liq nomlar, relyef bilan bog‘liq geografik nomlar (geomorfonimlar), iqlim va ob-havo bilan bog‘liq nomlar, suv obyektlari bilan bog‘liq nomlar (gidronimlar), o‘simliklar bilan bog‘liq geografik nomlar (fitonimlar), hayvonot olami bilan bog‘liq geografik nomlar (zoonimlar), foydali qazilmalar va tog‘ jinslari bilan bog‘liq nomlar, kasb-hunardan olingan geografik nomlar, xalq, urug‘-qabila bilan bog‘liq geografik nomlar (etnonimlar), shaxslarning ismfamiliyalari, taxalluslariga qo‘yilgan nomlar (antropotoponimlar), afsonaviy nomlar, diniy nomlar, g‘aroyib nomlar, zamonaviy nomlar.

Yuqoridagi tasnifiy tamoyillar asosida o‘tkazilgan guruhlashtirish geografik nomlarining ilmiy jihatidan tadqiq etishda, etimologiyasini ochib berishda, toponimik rayonlashtirish o‘tkazishda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.

Natijalar va muhokama: Geografik nomlarni tasniflashda ekologik-geografik yondashuv asosida o‘tkazilayotgan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda. Geografik nomlarni uzoq vaqt saqlanib qolishligidan bugungi kunga kelib tabiat va jamiyat o‘rtasida kechayotgan salbiy tabiiy geografik jarayonlar nomlarda aks etishi va bu holat tabiiy-atrof muxitga antropogen omil ta’sirini baxolashda qo‘shimicha material sifatida xizmat qilmoqda. Joy nomlari hududning o‘ziga xos geografik va ekologik xususiyatlarini o‘ziga mujassamlashtiradi. Bunday nomlarni fanda ekologik toponimlar deb atalmoqda [5]. Ekologik toponimlar tushunchasini ilmiy adabiyotlarda ilk marta 1993 yilda Dog‘istonlik olim X.L.Xanmagomedov tomonidan ishlatildi [1]. Ekologik toponimlar deb o‘tmishdagi tabiiy geografik sharoit va landshaftlar haqida, etnoslarni yangi ijtimoiy-geografik va landshaft muhitiga joylashishi hamda moslashishiga ta’sir etuvchi omillar, antropogen ta’sir natijasida yo‘q bo‘lgan landshaftlar, alohida o‘simlik va xayvonlar haqida ma’lumot beruvchi toponimlarga aytiladi. Bu yo‘nalishda ham tadqiqotning mazkur toponimlarni tasniflashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Geografik nomlarning ekologik jihatlarini tasniflash va tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashda MDX olimlaridan E.M.Murzayev (1979), E.B.Nuriyev (1979), R.M.Yuzbashev (1979), G.I.Xornauli (1979), V.S.Jekulin (1982), X.L.Xanmagomedov (1993), S.Z.Maxacheva (1993), A.N.Gebekova (1993), V.D.Belenkaya (1969), V.N.Kalutskov (2009), O‘zbekistonlik olimlardan S.Gubayeva (1973), H.Hasanov (1965), S.Qorayev (2006), N.Oxunov (2005), Q.Xakimov (2010), Y.Axmadaliyev (2018) kabi olimlarning xissalari katta hisoblanadi [1].

Bunday yondashuv asosida toponimlar asosan filologlar, tarixchilar, etnograf mutaxassislar tomonidan yig‘iladi va o‘rganiladi. Toponim-geografik obyektni o‘zini-o‘zi aniqlash usuli, uning yakkaligi va noyobligini ta’kidlash vositasi hisoblanadi. Toponimlarga kichik, mayda geografik obyektlarlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi mikrotoponimlar xos bo‘lib, ular tilda uzluksiz paydo bo‘lishligi va tez-tez almashib, o‘zgarib turishi, ularning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Keyinchalik toponimga turli xil terminlar qo‘shilishi, shuningdek toponimni yirik va mayda masshtabli xaritalarga tushishi orqali geografik nomga aylanadi. Toponimlarning geografik nomga aylanishi uchun ma’lum shaklga ega bo‘lgan obyektga nom beriladi. Masalan, Toshkent-toponim, Toshkent viloyati yoki shahri ma’lum hududiy shaklga (viloyat va shahar) ega bo‘lgan geografik nomdir. Demak, yirik geografik obyektlar-okean va dengizlar, qit’alar va materiklar, daryolar va tog‘lar, mamlakatlar va o‘lkalar hamda shaharlarning nomlari geografik nomlarni tashkil etadi va ular makrotoponimlar xisoblanadi. Tarixiy davrlarda qadimiyligi, uzoq vaqt saqlanib qolishi va

kam o‘zgarishi makrotoponimlarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biridir. V.N. Kalutskovning takidlashicha, toposning moddiy asosini “joy” tashkil etadi va ko‘p hollarda toponim uning xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi [3].

Toponim orqali joyning tarixi davom etadi, uning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Keyinchalik toponim ma’lum jamoaning mulkiga aylanadi va jamoaning madaniy tafakkurida o‘z o‘rnini topadi. Ma’lum kishilik jamoasi uchun ahamiyati yuqori bo‘lgan, o‘ziga xos qadr-qimmatga ega bo‘lgan va barqaror o‘zgarmas qiyofasiga ega bo‘lgan geografik nomlar – geokonsept hisoblanadi. Geokonseptni топоним +qiyofa +joy (hudud) formulasida tasavvur qilish mumkin [3]. Geokonseptni boshqa geografik nomlardan farqli tomoni aniq chegaraga ega emasligi, biroq doimo aniq ifodalangan o‘zining madaniy, tarixiy, va geografik qiyofasiga ega bo‘lganligi bilan ifoda etiladi [1]. Masalan, Qo‘qon, Xorazm, Buxoro, Farg‘ona oddiy toponim yoki geografik nom emas balki yuqorida ta’kidlangandek madaniy, tarixiy va geografik qiyofasiga ega bo‘lgan geokonsept hisoblanadi.

Geokonsept g‘oyasiga geografik-ekologik nuqtai-nazardan yondashish natijasida asosan geografik nomlardan amalda foydalanish mumkin bo‘lgan jihatlariga va bajaradigan vazifasiga qarab quydagi guruhlarga bo‘lishni taklif etish mumkin:

1) Hozirgi vaqtda antropogen ta’sir natijasida yo‘q qilib yuborilgan o‘simlik va xayvonot dunyosi haqida ma’lumot beruvchi geografik nomlar;

2) Xududning tabiiy-geografik holati va undan foydalanish jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy ekologik o‘zgarishlar haqida xabar beruvchi geografik nomlar;

3) Noyob tabiat obyektlarini, xushmanzara go‘shalarni asrashga xizmat qiluvchi, geoekologik nomlar;

4) G‘aroyib, qo‘rqinchli, afsonaviy xarakterga ega bo‘lgan geografik nomlar;

5) Kishilar va ularning alohida jamoalarida tabiiy-antropogen obyektlarga nisbatan egalik xissini shakillantiruvchi geografik nomlar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, geografik nomlarni o‘rganishda ularni tasniflash, ya’ni turlarga ajratib o‘rganish muhim axamiyatga ega. Geografik nomlarni tasniflashda tabiiy geografik landshaft asosida tadqiq etishga mutlaqo yangi geografik-ekologik asosdagi yondashuvni V.N. Kalutskov tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur maqolada ana shu g‘oya asosida geografik nomlarni tasniflash amalga oshirildi. Shuningdek toponim, geografik nom va geokonsept tushunchalari taxlil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ахмадалиев Ю.И., Отақулов П.С. Экологик топонимлар –Фарғона, 2021.–188 б

2. Беленкая, В. Д. Топонимы в составе лексической системы языка.- М. : Изд-во Моск. ун-та, 1969. – 188 с.

3. Калуцков В.Н«Имя» в географии:от топонима к геоконцепту// Изв.РАН. Сер. геогр. -Москва, 2016 №2. - С.100-107 С.

4. Миракмалов М.Т. Ўзбекистон топонимларининг табиий географик хусусиятлари ва географик лингвистика. География фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Т.: 2020.

5. Madraximov A.E. “Geografik nomlarning ekologik funksiyasining mintaqaviy xususiyatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida)”. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand. 2026.-261 b.

5. Мурзаев Э.М. География в названиях. – М.: “Наука”, 1979.

6. Мурзаев, Э. М. География в названиях. 2-э изд. , перераб. и доп. – М. : Наука, 1982. – 176 с.